Soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatlarning yangi tizimi sharoitida soliq nazorati	1048
Rajabbaeva Dildora Zakirovna, Aripova Aziza Alisherovna	
Boshqaruv jarayonlarini tashkil etishning xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	1053
Jo'rayeva Niginaxonim Xursand qizi	
Jahonda eksportni qo'llab-quvvatlash amaliyoti.....	1057
Xudoynazarov Sherzod Ismoilovich	
Raqamli moliyaviy texnologiyalarni korxona darajasida joriy etish orqali moliyaviy barqarorlikka erishish strategiyasi	1063
Soibov Nozimbek Faxridin o'g'li	
Применение методов PMBOK в управлении рисками проектов	1070
Гулираъно Носирова Абдулазиз кизи	
Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda aholi farovonligining o'rni va ahamiyati	1073
Bobaev Isroiljon Abdinabievich	
Вопросы инновационных инвестиций в контексте международной экономической интеграции	1078
Шарипов Бахтиёр Михлибаевич	
Yashil iqtisodiyotga o'tishning nazariy va amaliy jihatlar hamda tendensiyalari.....	1083
Samiyev Abdurashid Qaxramonovich, Shermuxammedov Begzodjon Usmonovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar samaradorligini ta'minlash yo'llari.....	1087
Nazarov Qilich Xolmuradovich	
Improving the organizational and economic mechanisms for the development of tourism in the republic of karakalpakstan	1092
Tleumuratov Baxadir Genjemuratovich	
O'zbekistonda tumanlar barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash yo'llari (Surxondaryo viloyati misolida).....	1097
Qosimova Nodira Saidovna	
Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning asosi sifatida innovatsiyalar.....	1102
Azizova Maliha Farrux qizi	



Влияние инвестиций на инновационное развитие и повышение конкурентоспособности экономики узбекистана	1106
Максудова Шахзода	
Возможности снижения затрат на логистику за счет цифровых технологий	1112
Олимова Бахора Шухратовна	
Yashil texnologiyalar va ularning iqtisodiy tizimga ta'siri	1116
Sultonov Omon Juma o'g'li	
Iqtisodiy o'sishning makroiqtisodiy faktorlari va ularning ta'siri	1121
Zuvaydullaev Nematullo Oybek o'g'li	
Роль управления производством в условиях модернизации экономики	1125
Гулов Мухтор Очилович	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni va ahamiyati	1129
To'rayev Shavkat Shuxratovich	
Роль цифрового маркетинга в продвижении туристических направлений	1136
Муродова Наргиза Уткировна	
Развитие финансовых рынков в странах снг: проблемы и перспективы	1140
Рузиев Зафар Икрамович, Каримов Ислон Ураз угли	
Современные инструменты продвижения бренда в условиях цифровой экономики	1145
Темирова Феруза Сагдуллаевна	
"Raqamli asrda axborot xavfsizligi: it texnologiyalar bilan xavfsizlikni ta'minlash yo'llari"	1149
Sherzod Rajabov	
Государственное регулирование инвестиционной деятельности: проблемы и направления совершенствования	1152
Шухрат Турсунов, Икромов Хасан Зафарович	
Economic incentives and barriers to sustainable transition in agribusiness: a comparative study of organic and conventional farming systems	1157
Mubina Toirova	
Цифровая трансформация банковской системы узбекистана: анализ внедрения fintech-решений в государственных банках	1162
Абдурахимова Дилора Каримовна	
Ta'lim muassasalaridagi ba'zi jihatlar	1167
A'zam Qutbiddin A'zam-zoda	
Klasterlar hisob siyosatida boshqaruv hisobining metodologik asoslari	1173
Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich	
Egri soliqlarning mohiyati, genezisi va rivojlanish tendensiyalariga oid nazariy munozaralar xususida	1179
Shodiyev Olimjon Abduraxmonovich	
Ekologik mehmonhona faoliyatini rejalashtirish maqsadlari va vazifalari	1186
Abidova Dilfuza Igamberdievna	
Investitsiya loyihalarining iqtisodiy va moliyaviy samaradorligini oshirish istiqbollari	1200
Jo'rabekova Xumora Muzaffar qizi, Saidov Rasul Boltabayevich	
O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarining tahlili	1204
Aliyev Arslon Salom o'g'li	
O'zbekistonda turizm sohasining iqtisodiy ko'rsatkichlarini statistik tahlil qilish	1213
Jumanova Zilola Tuychiyevna	
Xorijiy davlatlarda boylik solig'i va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1219
Ruziyev G'anisher Usarovich	
Yer fondi va undan samarali foydalanishning nazariy asoslari (Samarqand viloyati misolida)	1225
Xoshimova Sevara Baxromovna	
Iqtisodiy-ekologik tizimlarni boshqarishga ta'sir etuvchi omillarning ilmiy asoslari	1229
Kuldoshev Asliddin Tursunovich	
Влияние финтех-услуг на финансовую инклюзию в сельских регионах узбекистана	1236
Абдурахимова Дилора Каримовна	
Surxondaryo viloyati sanoat sohasining asosiy ko'rsatkichlari tahlili	1240
Kuvanchiyeva Mehriniso Davlyatgeldi qizi	
A critical evaluation of strategic management's role in promoting sustainable development in Uzbekistan	1245
Ismatova Mahliyo	



O'zbekistonda turizm xizmatlari eksportini oshirishda zamonaviy infratuzilma va texnologiyalarning integratsiyasi.....	1251
Akmal Bakhromov	
Trends and reforms of corporate governance in state-owned enterprises.....	1257
F.Djalilov	
Переоценка долгосрочных активов в нефтегазовой промышленности и определение финансового результата от переоценки.....	1269
Махкамова Саида Гайратова	
Oziq-ovqat mahsulotlari korxonalarini integratsiyalashuv jarayonlarini boshqarish samaradorligini oshirish.....	1275
Xojiev Ibroxim Ikramovich	
Sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim shartlari.....	1280
Allanazarova B.K.	
P2P lending and crowdfunding as alternative sources of financing for small business in Uzbekistan.....	1286
Abdurakhimova Dilora Karimovna	
O'zbekistonda soliq nazoratining huquqiy va tashkiliy asoslarini takomillashtirish yo'llari.....	1290
Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Oymatova Gulnura Mirjamolovna	
Applications of hyperbolic geometry in physics and biology.....	1295
Khaknazarova Khurshidabonu Kenjaevna, Otakulova Rukhshona Akram kizi	
O'zbekiston temir yo'llari tizimining transformatsiyasi: modernizatsiya, raqamlashtirish va qayta tuzilish yo'nalishlari.....	1301
Nasrullayev Nurbek Baxtiyarovich	
The role of tourist product diversification in sustainable tourism development.....	1305
Raxmonov Shuxrat Shavkatovich, Alimova Mashhura Toirxonovna	
Temiryo'l transporti turi tavsifi.....	1310
Shodmonbekova Nodira Kamoljon qizi	
Namangan viloyatining turizm salohiyatini rivojlantirish istiqbollari: Hududiy raqobatbardoshlik va innovatsion yondashuvlar.....	1314
Khusniddin Egamnazarov	
Kiberxavfsizlik: it infratuzilmasini himoya qilishning zamonaviy usullari.....	1321
D. Sh. Usmanbayev	
Mahalliy budjetlar daromad bazasini tahlili.....	1325
Qurbonov Nuriddin Ro'ziqulovich	
Развитие цифровых финансовых услуги в банковской системе Республики Узбекистан.....	1333
Абдурахманова Матлуба Махамадаминовна	
Avariya rejimlarida kichik yuklamali elektr ta'minoti tizimlarining kabel izolyatsiyasi monitoringini avtomatlashtirishning zamonaviy yondashuvlari.....	1339
Mirzoyev Narzulla Nuriddinovich, Mamatqulov Toyir Chorshanbiyevich	
Analysis of increasing the speed of information exchange between the control interface and execution mechanisms in emergency mode in intelligent systems.....	1346
Azizbek Yusupbekov Nodirbekovich, Husniddin Esonov Mamarasul o'g'lu Assistant	
Sa'noat korxonalari va mexatron robotlarni optimal avtomatlashtirish va boshqarishda sun'iy intellektning ahamiyati.....	1351
Karabayev Ibragim Turdiyevich, Esonov Husniddin Mamarasul o'g'li, Abdullayeva Saodat Mengbayevna, Mamatqulov Toir Chorshanbiyevich	
Korxonaning moliyaviy holatini baholashda zamonaviy tahlil uslublarining qo'llanilishi.....	1355
Usmanova Nasiba Akbarjonovna, Suleymanova Asel Armanovna	
Xizmat ko'satish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalarning ahamiyati.....	1360
Mirzayeva Shirin Nodirovna	
Rekreatsiya turizmi va sog'lomlashtirish xizmatlari integratsiyasi.....	1365
Shaymanova Nigora Yusupovna	
Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishda ba'zi iqtisodiy yondashuvlarning nazariy jihatlar.....	1369
Iskandarova D.B.	
Yashil (eko) investitsiyalarni tijorat banklari orqali moliyalashtirish.....	1373
Kamilova Iroda Xusniddinovna	



Improvement of inventory accounting audit based on international standards	1378
Ovlayev Suhrob Temur o'g'li, Yo'ldiyev Oybek Ulug'bek o'g'li, Normo'minova Dilorom Umar qizi, Avlayeva Oybachin Olim qizi	
Artificial intelligence systems for assessing creditworthiness	1382
Mardonova Durdona Yaxshiboy qizi	
B2B bozorini rivojlantirishda raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish	1387
Samadov Askarjon Nishonovich	
Tech-driven growth and the economy of the future: brics-t in the society 5.0 paradigm	1395
Kaldibayev Nurlan Alimjanovich, Sagdullayeva Gulnora Botirovna, Durmanov, Akmal Shaimardanovich	
O'zbekistonda tabiiy resuslardan olinadigan rentaning yaimdagi ulushiga tanlab olingan o'zgaruvchilar ta'siri tahlili	1404
Tursunov Husnidin, Ibragimov Hasan	
O'zbekistonda fond bozorini tartibga solish	1412
Sultonov Sherali Nuraliyevich	
Public perception of the feasibility of introducing islamic banking in Uzbekistan: a consumer perspective	1418
Dr. Shamirova Surayyo Kabildjanovna	
Directions for implementing the innovative digital technologies in tourism	1425
Norchaev Asatullo Norbutaevich	
Возможности совершенствования практики финансирования инвестиционных проектов	1430
Шомуродов Равшан Турсункулович, Хакимов Хафизбек Хамза угли	
O'zbekistonda pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatishning transport-logistika jarayonini mintaqaviy darajada rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish	1436
Palvanbayev Umidbek O'ktam o'g'li	
Aksiyalar qiymatini baholashning nazariy asoslari	1440
Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi	
Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishning rivojlanayotgan davlatlar amaliyoti tahlili	1444
Raimjanova Madina Asrarovna, Zokirova Feruza Farxod qizi	
Yashil loyihalarni davlat xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish	1449
Zokirova Feruza Farxod qizi	
Факторы и риски, влияющие на оценку стоимости акции	1453
Батирхужа Азиза Фахмуддин кизи	
Финансовые риски в эпоху цифровой экономики: новые вызовы и способы управления	1458
Нуруллина Камила Рустамовна	
Tijorat banklarining yangi bank xizmatlarini iqtisodiy samaradorligi	1463
Raxmatov Temur Sotiboldiyevich	
Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida ekologik innovatsiyalarning roli va amalga oshiruv mexanizmlari	1472
Ulichkina Lyudmila Ivanovna	
Эволюция профессиональных стандартов в республике узбекистан: от формирования к внедрению в сфере туризма	1478
Гольшева Елена Вячеславовна, Ивонина Наталья Викторовна	
Aligning uzbekistan's education reform with global best practices: the university of missouri as a model for systemic transformation	1485
Azamat Sulaymonov, Laylo Yakhshiboyeva	
O'zbekiston tijorat banklarining investision faolligini ta'minlash masalalari	1489
Axmedov Shoymurod Azamat o'g'li	



O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARINING INVESTISION FAOLLIGINI TA'MINLASH MASALALARI

Axmedov Shoymurod Azamat o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Bank hisobi va auditi kafedrasida
stajer-o'qituvchisi, tayanch doktoranti
E-mail: shomurod.axmedov@mail.ru



Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston tijorat banklarining investitsion faolligini shakllantirish va uni barqaror darajada ta'minlash masalalari chuqur tahlil etiladi. Banklar faoliyatida kapital aylanish tezligi, uzoq muddatli kreditlash hajmi, innovatsion moliyalashtirish vositalari hamda investitsiyaviy risklarni boshqarish mexanizmlarining o'rni yoritiladi. Amaliy tajribalar, me'yoriy-huquqiy baza hamda xalqaro yondashuvlar asosida investitsion faollikni oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: investitsion faollik, tijorat banki, investitsion risk, moliyaviy vositachilik, uzoq muddatli kreditlash, likvidlik, barqarorlik.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the mechanisms for ensuring and strengthening investment activity in commercial banks of Uzbekistan. It explores the role of long-term financing, innovation-driven instruments, capital turnover, and risk management frameworks. Based on empirical evidence and comparative practices, the paper offers strategic recommendations to improve investment dynamism in the banking sector.

Key words: investment activity, commercial banks, investment risk, financial intermediation, long-term credit, liquidity, sustainability.

Аннотация: В статье представлен углублённый анализ вопросов обеспечения инвестиционной активности коммерческих банков Узбекистана. Раскрываются аспекты долгосрочного кредитования, оборота капитала, управления инвестиционными рисками и применения инновационных инструментов финансирования. На основе сравнительного анализа и национальной практики предложены научно обоснованные рекомендации по активизации инвестиционной деятельности банков.

Ключевые слова: инвестиционная активность, коммерческие банки, инвестиционные риски, финансовое посредничество, долгосрочное кредитование, ликвидность, устойчивость.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsion faoliyatning faolligi iqtisodiy taraqqiyotning barqarorligini ta'minlovchi asosiy drayverlardan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Ayniqsa, real sektorni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash borasidagi islohotlar chuqurlashib borayotgan hozirgi bosqichda tijorat banklarining investitsion jarayonlarda faol ishtirok etishi iqtisodiy muhitning umumiy dinamikasini oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Moliyaviy vositachilar sifatidagi banklar jamg'armalarni investitsiyalarga yo'naltirish orqali iqtisodiyotda resurslarni samarali taqsimlashda muhim bo'g'in vazifasini bajaradi.

So'nggi yillarda O'zbekiston bank tizimida amalga oshirilgan tizimli islohotlar natijasida kapital yetarliligi, likvidlik darajasi va moliyaviy barqarorlik sezilarli darajada mustahkamlangan. Bu esa tijorat banklarining investitsion faoliyatini kengaytirish uchun puxta institutsional va moliyaviy zamin yaratmoqda. Mazkur imkoniyatlardan to'liq foydalanish maqsadida investitsion portfellarni diversifikatsiyalash, an'anaviy kreditlash modelidan uzoq muddatli, yuqori samarali investitsiyalarga yo'naltirilgan yondashuvga o'tish muhim ahamiyat kasb etadi.

Investitsion faollikni yanada kuchaytirish uchun banklarda resurslardan samarali foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish, risklarni chuqur baholash tizimlarini joriy etish va zamonaviy investitsion tahlil vositalarini faol tatbiq etish zarur. Shu yo'nalishda, innovatsion loyihalar, startaplar, ekologik va ijtimoiy infratuzilma kabi istiqbolli



sohalarni moliyalashtirish banklar investitsion faoliyatining strategik ustuvor yo'nalishlariga aylantirilishi mumkin. Xodimlarning malakasini oshirish, ilg'or xalqaro tajribalarni joriy etish va bank ichki strategiyalarini investitsion faoliyatga yo'naltirish orqali bu maqsadlarga erishish imkoniyati yuqori. Tijorat banklarining investitsiyaviy salohiyatini yanada to'laqonli safarbar qilish orqali nafaqat bank tizimi barqarorligini mustahkamlash, balki iqtisodiy o'sishning yangi sur'atlarini shakllantirish uchun zamin yaratish mumkin. Bu borada banklar ilg'or moliyaviy texnologiyalarni qo'llash, ehtiyotkorlik va strategik yondashuvni uyg'unlashtirish orqali barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi investitsiyaviy faoliyatni samarali amalga oshirishi kutiladi.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, investitsion faollikni oshirish banklar faoliyatining sifat jihatidan yangi bosqichga o'tishini ta'minlaydi, ularning iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlovchi real moliyaviy tayanch institut sifatidagi mavqeini mustahkamlaydi. Shu sababli tijorat banklarining investitsion faolligini ta'minlash masalalarini chuqur o'rganish, ularning ichki siyosati, tashqi moliyaviy muhit, normativ-huquqiy baza, institutsional imkoniyatlar va amaliy mexanizmlarni kompleks tahlil qilish bugungi kundagi eng muhim ilmiy va amaliy vazifalardan biriga aylangan.

Ushbu maqolada O'zbekiston tijorat banklarining investitsion faolligi bo'yicha mavjud holat tahlil qilinadi, muammolar aniqlanadi va ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflar ishlab chiqiladi. Tahlil jarayonida milliy va xalqaro tajriba solishtirma asosda o'rganiladi hamda statistik ko'rsatkichlar asosida xulosalar shakllantiriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarining investitsion faolligini ta'minlash masalasi zamonaviy bank ishi, moliyaviy vositachilik va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish tizimida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xorijiy adabiyotlarda bu masala ko'plab moliyaviy nazariyalar va amaliy yondashuvlar orqali chuqur yoritilgan. Xususan, R. Levine va S. Zervos o'z tadqiqotlarida banklar orqali amalga oshiriladigan investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'siri, kapital resurslarining samarali taqsimlanishi va moliyaviy bozorlar bilan integratsiyalashuvi masalalariga e'tibor qaratgan. Ularning fikricha, banklarning investitsion faolligi bevosita iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini belgilaydi va bu faollik bank tizimining institutsional salohiyati bilan chambarchas bog'liq.

F. Mishkin va P. Rose banklar faoliyatida investitsion qarorlarning raqobat sharoitida qanday qabul qilinishini hamda resurslar taqsimoti jarayoniga ko'rsatadigan ta'sirini chuqur tahlil qilgan. Ushbu asarlarda investitsion faollikni aniqlovchi omillar sifatida bank kapitallashuvi, likvidlik darajasi, xodimlar malakasi, me'yoriy muhit va iqtisodiy siyosat ko'rsatib o'tiladi. Basel III standartlarida esa investitsion risklarni boshqarish, kapital yetarliligi va barqaror investitsion faoliyat yuritishning nazariy hamda amaliy tamoyillari bayon qilingan bo'lib, ular banklar uchun xalqaro mezonlarda faoliyat yuritishning asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Milliy ilmiy manbalarda ham bu masalaga oid tadqiqotlar mavjud. Xususan, N. Xudoyberganov, A. Shukurov, B. Shermuhamedov, M. Musurmonov va boshqa iqtisodchi olimlar O'zbekiston bank tizimidagi investitsion jarayonlarning o'ziga xos jihatlarini, tijorat banklarining real sektor bilan o'zaro integratsiyasini, davlat dasturlaridagi rolini va investitsion strategiyalarini ilmiy jihatdan yoritib bergan. A. Shukurov tijorat banklarining iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirishdagi o'rni hamda kredit investitsiyalari samaradorligini tahlil qilgan bo'lsa, M. Musurmonov banklarda investitsion siyosatni takomillashtirish bo'yicha muhim tavsiyalar ishlab chiqqan.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Moliya vazirligi tayyorlayotgan yillik hisobotlar, sektoriy tahlillar va strategik rivojlanish dasturlari banklarning investitsion yo'nalishdagi faoliyatini baholashda muhim manba hisoblanadi. Masalan, 2023-yilda Markaziy bank tomonidan tayyorlangan "Tijorat banklarining kredit va investitsiya portfeli holati"ga oid tahliliy ma'lumotnomada bank resurslarining sektorlar bo'yicha taqsimoti, investitsiyalarning sohalar kesimidagi dinamikasi va samaradorlik ko'rsatkichlari batafsil yoritilgan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PQ-58-son qarorida banklarning investitsion faoliyatini kuchaytirish, uzoq muddatli kredit liniyalarini joriy etish, loyiha moliyalash tizimini takomillashtirish va xususiy sektor investitsiyalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq vazifalar belgilangan. Bu holat investitsion faollikni oshirishda siyosiy irodaning mavjudligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda tijorat banklarining investitsion faolligi bo'yicha konseptual yondashuvlar shakllanmoqda. Biroq investitsion strategiyalarni differensiallash, yangi mahsulotlar ishlab chiqish, xalqaro investitsion hamkorlikni kengaytirish va institutsional imkoniyatlardan to'laqonli foydalanish borasida ilmiy asoslangan takliflar hamda chuqur tadqiqotlar zarur. Shu bois, ushbu yo'nalishda kompleks yondashuv asosida yanada chuqur ilmiy izlanishlar olib borish muhimdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston tijorat banklarining investitsion faolligini baholash uchun statistik ma'lumotlar, bank hisobotlari va Markaziy bank nashrlari tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar dinamik qatorlar, korrelyatsion tahlil hamda taqqoslama usullari yordamida iqtisodiy-huquqiy jihatdan tahlil etildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston tijorat banklarining investitsion faolligini tahlil qilishda asosiy e'tibor banklar tomonidan turli sohalarga yo'naltirilgan moliyalashtirish hajmi va bu jarayonning strukturaviy xususiyatlariga qaratiladi. 2024-yilda tijorat banklari tomonidan moliyalashtirilgan investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshdi, bu esa ularning real sektor bilan aloqalari kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Investitsion resurslarning tarmoqlar bo'yicha taqsimoti esa banklar strategik yondashuvining iqtisodiy ustuvorliklarga asoslanganligini anglatadi (1-jadval).

1-jadval. 2024-yilda tijorat banklari tomonidan sohalar bo'yicha investitsion moliyalashtirish hajmi (mlrd so'm)

No	Sektor	Moliyalashtirish hajmi (mlrd so'm)
1	Sanoat	3 470
2	Qishloq xo'jaligi	1 920
3	Axborot texnologiyalari	1 110
4	Energetika	2 890
5	Transport-logistika	1 540
6	Turizm	720


Mazkur jadvaldan ko'rinib turibdiki, tijorat banklarining investitsiyalari asosan sanoat (3470 mlrd so'm) va energetika (2890 mlrd so'm) sohalariga yo'naltirilgan. Bu ikki sektor umumiy moliyalashtirish hajmining 55 foizdan ortig'ini tashkil etadi. Ushbu holat mamlakatda ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash hamda energetika xavfsizligini ta'minlashga bo'lgan strategik ehtiyojlar bilan izohlanadi.

Qishloq xo'jaligi sohasi 1920 mlrd so'm bilan uchinchi o'rinda turib, asosan agrosanoat klasterlari, suv tejoychi texnologiyalar va eksportbop mahsulot yetishtirish loyihalarini doirasida moliyalashtirilgan.

Shuningdek, 2024-yilda axborot texnologiyalariga yo'naltirilgan bank investitsiyalari hajmi 1110 mlrd so'mni tashkil etdi. Bu sohaga investitsiya jalb qilinishi raqamli transformatsiyaning jadallashuvi, fintech xizmatlariga bo'lgan talabning ortishi va davlat siyosatining IT sohasini rivojlantirishga yo'naltirilganligidan dalolat beradi.

Transport-logistika sohasiga yo'naltirilgan 1540 mlrd so'mlik investitsiyalar esa tashqi savdo hajmining kengayishi, Yevroosiyo mintaqasidagi integratsiya jarayonlari va infratuzilma loyihalarining ko'paygani bilan bog'liq. Turizm sohasi esa 720 mlrd so'm bilan eng past ulushga ega bo'lgan bo'lsa-da, o'sish tendensiyasi saqlanib qolmoqda (1-rasm).

2024-yilda tijorat banklari tomonidan investitsiyalarning sohalar bo'yicha taqsimoti



1-rasm. 2024-yilda tijorat banklari tomonidan investitsiyalarning sohalar bo'yicha taqsimoti



Diagrammadan ko'rinib turibdiki, investitsion moliyalashtirish tarmoqlar bo'yicha mutanosib taqsimlanmagan. Ya'ni, tijorat banklari investitsion resurslarni nisbatan kam xavfli va yuqori daromadli loyihalarga – sanoat, energetika va transport-logistika kabi sohalarga yo'naltirishda davom etmoqda. Bu holat banklarning riskka bo'lgan munosabatidagi ehtiyotkorlikni aks ettirsa-da, boshqa yuqori ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikka ega yo'nalishlarga – ta'lim, sog'liqni saqlash, ekologiya va yashil texnologiyalarga yetarli darajada resurs ajratilmayotganini ko'rsatadi.

Tahlil natijalari asosida quyidagi ijobiy metodik xulosa shakllantiriladi: so'nggi yillarda tijorat banklari investitsion faollik ko'rsatkichlari bo'yicha sezilarli yutuqlarga erishgan. Biroq, bu faollikni yanada takomillashtirish maqsadida sektorlar kesimida investitsiya oqimlarini yanada muvozanatli taqsimlash zarurati mavjud. Investitsion qarorlar qabul qilish jarayonida raqamli texnologiyalar, ekspert tizimlari va ilg'or risk baholash usullarini kengroq joriy etish orqali moliyalashtirilayotgan loyihalarning uzoq muddatli samaradorligini yanada oshirish mumkin. Shu bilan birga, investitsiya monitoringi tizimlarini takomillashtirish, barqaror va innovatsion yo'nalishlarni moliyalashtirishni strategik ustuvorlik sifatida belgilash, hamda xalqaro standartlarga mos investitsiya strategiyalarini shakllantirish tijorat banklarining investitsion faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

So'nggi yillardagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston tijorat banklari investitsion faollik yo'nalishida barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Xususan, sanoat, energetika va qishloq xo'jaligi tarmoqlariga yo'naltirilayotgan investitsiya oqimlari ushbu sohalarda modernizatsiya va texnologik yangilanishlarni jadallashtirish imkonini bermiqda. Shu bilan birga, investitsiyaviy faoliyatni axborot texnologiyalari, yashil iqtisodiyot, sog'liqni saqlash, turizm va startaplar kabi istiqbolli yo'nalishlarga kengaytirish bo'yicha salohiyat mavjudligi sektorlararo investitsiya muvozanatini ta'minlash uchun muhim omil hisoblanadi.

Tijorat banklarining investitsion faoliyatini yanada kuchaytirish uchun quyidagi yo'nalishlarda metodik yondashuvlar taklif qilinadi. Birinchidan, ichki strategik hujjatlarni qayta ko'rib chiqish orqali investitsiya portfellarining diversifikatsiyasi ta'minlanishi, uzoq muddatli, yuqori ijtimoiy va innovatsion samaradorlikka ega yo'nalishlarga ustuvorlik berilishi lozim. Ikkinchidan, bank tizimida loyiha tahlili, risklarni baholash va monitoring bo'yicha ilg'or malaka standartlariga asoslangan xodimlar tayyorlash, xorijiy ekspert tizimlaridan foydalanish samaradorlikni oshiradi. Uchinchidan, Markaziy bank va boshqa regulyatorlar tomonidan investitsiyaviy faoliyatni rag'batlantiruvchi imtiyozlar, kafolat mexanizmlari va davlat-xususiy sheriklik asosidagi qo'shma loyihalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining kengaytirilishi istiqbolli natijalarga xizmat qiladi.

Shuningdek, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni faollashtirish, transchegaraviy investitsiyalarni jalb etish va global moliya bozorlariga integratsiyalashuvni ta'minlash O'zbekiston tijorat banklariga yangi moliyalashtirish imkoniyatlarini ochadi. Ayniqsa, yashil obligatsiyalar, ESG-moliyalashtirish va ijtimoiy investitsiyalar orqali barqarorlikka yo'naltirilgan yondashuvlar bank tizimining zamonaviy moliyaviy tendensiyalarga moslashuvchanligini kuchaytiradi.

Umuman olganda, O'zbekiston tijorat banklari mavjud resurs va salohiyatni zamonaviy strategik qarorlar bilan uyg'unlashtirish orqali iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishida yetakchi rolni mustahkamlashi mumkin. Bu esa nafaqat moliyaviy barqarorlik, balki kompleks iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim omilga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PQ–58-son qarori “Bank tizimini modernizatsiya qilish va investitsion faolligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). Tijorat banklarining investitsion faoliyati bo'yicha statistik sharh. – Toshkent: Markaziy bank axborot xizmati.
3. Xudoyberganov N.X. (2021). Tijorat banklarining investitsion salohiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
4. Shukurov A.N. (2022). “Banklar investitsion siyosatining nazariy asoslari va amaliy takomillashuvi”. // Moliyaviy tadqiqotlar jurnali, №3, 47–56-betlar.
5. Musurmonov M.B. (2020). Bank investitsiyalarida risklarni boshqarish va monitoring tizimi. – Toshkent: Fan va taraqqiyot.
6. Basel Committee on Banking Supervision. (2017). Sound Practices: Implications of fintech developments for banks and bank supervisors. – Bank for International Settlements.
7. Levine, R. & Zervos, S. (1998). “Stock Markets, Banks, and Economic Growth”. // American Economic Review, Vol. 88(3), pp. 537–558.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
